

“DORIAN GREYNING PORTRETI” DA ICHKI GO’ZALLIKNI MADH ETILISHI HAMDA INSONIY TUYG’ULAR HAQIDA

Abdusamatova Umidaxon

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Jurnalistika fakulteti

2-bosqich talabasi

Dunyoni boshiga ursinmi inson, boy berib qo‘ysa u butun qalbini.
(Oskar Uayld)

Annotatsiya: Mazkur maqolada mashhur shoir, dramaturg Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” romani, undagi obrazlar, asar syujeti hamda insonning ichki hislari va qilayotgan ishlari uning chehrasida namoyon bo‘lib borishi haqidagi qarashlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Oskar Uayld, “Dorian Greyning portreti” romani, obrazlar, ichki kechinmalar, Dorian Grey, Sibila Veyn

Irlandiyaning Dublin shahrida tug‘ilgan mashhur shoir, dramaturg Oskar Uayld o‘zining yozgan epigrama, drama, qissa, tanqid, publitsistikalari bilan mashhur. Uning 1890-yillarning boshlarida yozgan “Dorian Greyning portreti” romani muvaffaqiyatli dramaturglaridan biriga aylantirgan. Hozirgacha bu asar jahon adabiyotining durdonasi sanaladi.

Asar qahramonlari:

Dorian Grey — asarning bosh qahramoni, juda ko‘rkam o‘smir yigit. Uning obrazi nozik did, romantik va qotillikka qodir tuban shaxsni birlashtirgan.

Bezil Xolluord — rassom, Dorianning yaqin do‘sti. U Dorian Greyning go‘zallik timsoli sifatida ko‘radi. Asardagi asosiy predmet hisoblangan portret, ya‘ni Dorian Greyning portreti chizgan rassom.

Lord Genri Uotton — oqsuyak, yangi gedonizm g‘oyasi targ‘iborchisi, paradokslar shahzodasi. O‘z qarashlari bilan yosh Dorianni qalbiga hudbinlik, razillik, tubanlik urug‘larini ekan inson.

Sibila Veyn — 17 yoshlardagi yosh va iqtidorli aktrisa. Dorian bilan uchrashuviga qadar teatrdagi beqiyos rollari bilan shuhrat qozonayotgan aktrisa. Dorian Greyga bo‘lgan muhabbati sababli teatrdagi rolini maromiga yetqazib o‘ynay olmay qoladi. Shu sababdan Dorian uni tashlab ketadi. Bu dardni ko‘tara olmagan o‘smir qiz o‘z joniga qasd qiladi.

Jeyms Veyn — Sibilaning akasi, Avstraliyaga dengizchi bo‘lib ketishni orzu qiladi. Singlisining o‘limidan so‘ng hayotga qiziqishi yo‘qotib, faqat qasos istagi bilan yashaydi.

Misis Veyn — Sibilaning onasi. Shuhratparas, hayotni ham teatr deb biluvchi ayol

Genri Eshton, Lord Kentning o‘g‘li, gersog Perskiy, Adrian Singlton — Dorian Grey yo‘ldan ozdirgan yoshlar.



Dorian Grayning portreti (inglizcha: The Picture of Dorian Gray) — Oskar Uayldning yagona chop etilgan asari. Janri roman va ibratli qissalarning qorishmasiga o'xshaydi. Ikkita versiyasi mavjud:

1-versiyasi: 1890-yil iyulidagi 14 bobli

2-versiyasi: 1891-yilning aprelidagi 20 bobli ko'rinishlari.

“Dorian Grayning portreti” Uayldning eng muvaffaqiyatli asari bo'lib, turli davlatlarda 30 dan ortiq ekranlashtirilgan variantlari bor. Fitjerald fikricha bu roman Balzakning „Sag'ri teri tilsimi“ va Gyuismansning „Teskari“ asarlari namunasida yaratilgan, 17 yoshlardagi o'smirlarni nimanidir jiddiy o'ylashga majbur qiladigan ertaknamo qissalari asosida yaralgan roman. Nima bo'lganda ham asar millionlar qalbini zabt etib, adabiyot durdonalaridan biriga aylanib qolgan. Jahon adabiyoti darsida tavsiya qilingan ushbu roman deyarli barcha talabalarni rom etib ulgurdi desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki roman asl go'zallik, qalb go'zalligi, muhabbat, sadoqat, hudbinlik, nafs bilan bir qatorda inson umrining asl mazmuni haqida yozilgan. O'tkinchi dunyo, go'zallikka berilib qalb gavharini qora dog'larga to'ldirgan Dorian o'zida kechirgan his-tuyg'ularni o'qib, inson harakteri, ichki kechinmalarida yuz beruvchi ba'zi bir adashib bo'lmas tuyg'ularni guvohi bo'lamiz va o'zimizni tahlil qila boshlaymiz. Asar syujetiga to'xtalsak, “Dorian Grey portreti” romani husnda tengi yo'q, yosh, go'zal yigitning ta'rifi bilan boshlangan. Kiborlar oilasida tug'ilgan, beg'ubor, sodda bu yigit asli kasbi rassom bo'lgan Bezil Xolluordning eng yaqin kishisiga aylangan. Sababi Dorianni tanigandan beri u o'z san'atida shuhrat qozona boshlaydi, Dorian unga go'zal manzaralarni ko'rsatib turadi goh esa soatlab bir joyda qimirlamay o'tirishiga to'g'ri keladi. Bezil uni turli holatlardagi suratlarini chizgan. Bu suratlardan birini ko'rib qolgan Lord Genri esa bu yosh yigitga qiziqib qoladi. U bilan tanishib, hayot haqidagi o'z qarashlarini singdirishga harakat qiladi. Bir kuni Bezil Xolluord Dorian Greyning portretini chizmoqchi bo'ladi, bu orada Lord Genri kelib qoladi va Dorianga yoshlik o'tkinchi ekanligini, vaqtida o'yin kulgu qilish kerakligi, vaqti kelib insonlar xunukdan-xunuk qo'g'irchoqlarga aylanishi haqidagi fikrlarini aytib o'tadi. Bu orada Bezil Dorianning portretini yakunlaydi. Rasm Dorianga juda yoqadi va uni yonida turib “Men qariyman, jirkanch bir badbashara kimsaga aylanaman, suratim esa manguga navqiron bo'lib qolaveradi. U hech qachon bugungi iyun kunidagidan ko'ra qariroq bo'lib qolmaydi. Oh, koshki buning aksi bo'lsa?! Ana shu suratim qarisayu, men mangu yoshligimcha qolaversam! Buning uchun... buning uchun men olamdagi bor narsani berishga tayyorman. Ha, hech narsamni ayamas edim. Buning uchun hatto jonimni ham beraman!” - deydi. Hammasi ana shundan boshlanadi.

Dorian 17 yoshli sohibjamol aktrisa Sibila Veynni teatrdagi tomoshalarini ko'rib oshiq bo'lib qoladi. Turli harakatlar bilan ohiri uning sevgisini qozonadi. Sibila Veyn ham bu yigitga telbalarcha oshiq bo'lib, u siz endi hayotini tasavvur qila olmaydigan holatga keladi. Shu paytgacha sevgi nimaligini bilmagan, o'z muhabbatini teatrdagi rollaridan, partnyorlaridan qidirgan va shu sahna asarlarida yashaydigan qiz, Dorianning muhabbatiga ishonib, uni sevib qoladi. Haqiqiy muhabbati rollarda emas, hayotda, Dorian siymosida kelgan deb o'ylaydi va bor hayoli sevgilisi bilan band bo'ladi. Avval muhabbatini teatrdagi rollarida deb bilgan aktrisa endi uni yolg'on va yasama ekanligini tushunadi va sahna asarlarida ham sohta, shunchaki o'ynay boshlaydi. Sibila Julietta rolini maromiga yetqazib o'ynay olmaydi, bundan darg'azab Dorian esa Sibilani tashlab ketadi, ayriliqqa chiday olmagan Sibila esa o'z joniga qasd qiladi. Bundan kelib chiqadiki yosh, barno yigitning muhabbati aynan yorga emas, teatrga, sahna asariga nisbatan bo'lgan muhabbat ekanligini payqamaydi. Shu kundan boshlab Dorian Greyning portretidagi siymosi o'zgara boshlaydi. Uni har bir qilgan qabih ishi portretidagi yosh yigitni mahluqqa aylantira boshlaydi.

Har ne qilsa ham o'z chehrasidagi sohibjamolligini yo'qotmayotgan Dorian Grey kiborlar orasida o'zini ma'naviyatli jentlmenlardek tutadi ammo u kundan kun qabihlik botqog'iga botib, iflos ishratxonalarda, maishatu-bazmlarda kezib yuradi. O'z qabihliklarini yashirish

uchun Bezilni o'ldiradi. Genri Eshton, Lord Kentning o'g'li, gersog Perskiy, Adrian Singleton kabi yoshlarni yo'ldan ozdiradi. Ohiri jirkanch mahluqqa aylangan portretini ko'rib g'azab otiga minadi. O'z gunohlarining yagona guvohi bo'lgan portretni yo'q qilish uchun unga pichoq sanchadi va o'zi ham halok bo'ladi. Xizmatkorlar ko'rkam yigit tasvirlangan portret va uning yonida o'z ko'ksiga xanjar urgan yoqimsiz cholni topishadi. Faqat qo'lidagi uzukka qarab bu chol Dorian ekanini bilishadi. Shu bilan tashqi go'zalligini yo'qotishni istamagan yigit, ichki go'zallik- qalb go'zalligini unutadi. O'z qabihliklari natijasida ayanchli ahvolga kelgan asl qalb oynasini ko'rib, uni yo'qotishga urunadi lekin o'z ayblariga tik qarashga dosh bera olmay vafot etadi.

Ushbu asar hayot ostonasidagi o'smir yoshlar o'qilishi lozim bo'lgan asar deb o'ylayman. Chunki aynan shu yoshlarda hayot oqimiga moslashadi, oq va qorani tanib o'zlari uchun yo'l tanlaydilar. Asl go'zallik yuzda emas, qalb go'zalligidaligini asar isbotlab beradi. Insonning ichki hislari, qilayotgan ishlari uning chehrasida namoyon bo'lishi ham asarda aytib o'tilgan. Demak, farishtali inson deb chindan ezgu hislatli kishilarga ishlatishimiz ham haqiqat. Inson hayoti davomida o'zligini topa olishi, hamda o'zi bo'lib yashashi kerakligini ham ushbu roman yordamida bilib olishimiz mumkin. Yosh va ko'rkam, beg'ubor yigitga atrofidagi insonlar ta'siri hamda vaqtinchalik go'zallik deb o'z qalbini qoraytirgan inson kechmishi jahon kitobxonlarini sevimli romaniga aylanib ulgurgan.

Portret – yoshlik ramzi

Ayvondagi portret turgan xonasi – Dorianning sirlari

Portretidagi Dorianga tushayotgan ajinlar- qabihliklari, vijdoninig kirlanishi, qalbining qorayishi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oskar Uayld – “Dorian Greyning portreti” romani (Ozod Sharafiddinov tarjimasi)
2. Wikipedia.uz